

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida
2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

Kon-geologiya vazirligida tasdiqlangan “2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar Dasturi” doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Dasturdagi 57 ta tadbirlar belgilangan muddatlarda amalga oshirildi, 1 ta tadbir (*Kon-geologiya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumini imzolash*) 2026-yilgi Dasturiga o‘tkazilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir bevosita **Kon-geologiya vaziri B. Islamovning** 2025-yil yanvar oyida vazirlikning rasmiy veb-saytida tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha murojati (gov.uz/oz/mingeo/activity_page/anti_corruption), “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 1-iyul kunidagi 133-soni, 4-sahifasida “**Ijro intizomi – islohatlar samaradlorligi asosi**” nomli va “Iste‘mol madaniyati” gazetasining 27-noyabr kunidagi “**Vazirlik faoliyatining ochiqligi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**”gi maqolalari berilgan.

Shu bilan birga, 2025-yil 30-iyun kuni vazirlik va tizim korxonalari mas‘ul xodimlari ishtirokidagi yig‘ilishda har bir tizim korxonalari o‘z faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bajarilishi to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qilish bilan birga korrupsiogen omillarga barham berish choralari ko‘rish to‘g‘risida topshiriqlar berilgan (*31-25-son bayon*).

2025 yilning 3-dekabr kuni “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan aksilkorrupsiya oyligi doirasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirida Kon-geologiya vaziri tomonidan vazirlik va uning tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yig‘ilish qatnashchilariga batafsil ma’lumot berib o‘tilgan (t.me/uzdavgeolcom/21131).

Bundan tashqari, 2025-yilning har choragida vazir tomonidan Kon-geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot ko‘rib chiqilib, soha tashkilotlarining rahbarlariga tegishli topshiriqlar berilgan.

Hisobot davrida vazir o‘rinbosarlari **U. Yusupov** va **R. Yusupovning** vazirlikning Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohatlar va mazkur yo‘nalishdagi tartib-taomillar to‘g‘risidagi chiqishlari (*04-25-, 50-25- va 55-25-son bayonlar*), vazir kortibiyati boshlig‘i **Z. Saidovning** korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Iqtisodiy o‘qishdagi chiqishi (*28-25-son bayon*) hamda vazir maslahatchisi **M. Pirojkov** tomonidan 3 ta tadbirlar davomida mazkur sohada vazirlik va tizim korxonalarida amalga oshirilayotgan ishlar qayd etilishi bilan birga, xodimlarning mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga doir seminarlar o‘tkazilgan (*17-25-, 44-25-, 48-25-son bayonlar*).

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefoni va telegram bot kanali to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizim korxonalarining axborot resurslari orqali ommalashtirildi, rasmiy veb saytining “Korrupsiyaga qarshi

kurashish” bo’yicha alohida sahifasida sohaga oid me’yoriy hujjatlar va yangiliklar yoritilmoqda.

Bugungi kunda Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalari — “Navoiy KMK”, “Olmaliq KMK”, “Oʻzmetkombinat” “Oʻzbekkoʻmir”, “Shargʻunkoʻmir”, “Oʻzbekgeofizika”, “Oʻzbek geologiya qidruv”, “Oʻzbekiston texnologik metallar kombinati” AJlari, “Navoiyuran” DK, “Oʻzbekgidrogeologiya”, “Yer qaʼridan foydalanish markazi”, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti”, “Geologiya fanlar universiteti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Mineral resurslar instituti”, “Geologiya va geofizika instituti”, “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” davlat muassasalari hamda Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlimlari ochilgan va jami **50 dan ortiq** mas’ul xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Hisobot davrida Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi, “Olmaliq KMK”, “Oʻzbekiston texnologik metallar kombinati” AJlari hamda “Oʻzbekgeofizika” AJning “Amirobrod, Fargʻona va Ustyurt kon- geofizika ekspeditsiyalari”ning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001 va Oʻz DST ISO 37001:2019 xalqaro va milliy muvofiqlik sertifikatlarini qoʻlga kiritdi.

Amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli qarori talablariga muvofiq 2024-yil reyting baholash yakunlari bo’yicha Kon-geologiya vazirligi 100 dan ortiq davlat organi va tashkilotlari ichida **95 ball toʻplagan holda**, Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi **“yaxshi”** deb baholanib, vazirliklar orasida **1-oʻrinni** qoʻlga kiritdi.

Bundan tashqari, 2025-yilning noyabr oyida “Cert International” xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan vazirlikning korrupsiyaga qarshi menejment tizimi tashqi auditdan oʻtkazildi. Mazkur tadbir natijasida 2025-yilning dekabr oyida vazirlik xalqaro **ISO 37001 va 37301** hamda **Oʻz DST ISO 37001:2019** milliy muvofiqlik sertifikatlarini qoʻlga kiritdi.

Mazkur sertifikatning qoʻlga kiritilishi vazirlik xodimlarida korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me’yorlar doirasida har doim oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarini vijdonan bajarish, qonun hujjatlariga qat’iy rioya qilish, teng raqobat tamoyillariga amal qilishi va halollik, ochiqlik va vijdoniylikning korporativ madaniyatini shakllantirish bo’yicha mas’uliyatini oshiradi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha siyosat va tartib-taomillar.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha ichki me’yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar, ya’ni “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish siyosati”, “Sovgʻa berish va qabul qilish siyosati” kabi sohaga oid 20 dan ortiq ichki me’yoriy hujjatlar qabul qilib, toʻplam va buklet sifatida nashr qilindi va oʻrnatilgan tartibda barcha xodimlarga tanishtirish va tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Yuqoridagi barcha ichki me'yoriy hujjatlar elektron tarzda axborot olish uchun vazirlikning rasmiy-veb saytida uchta tilda joylashtirilgan.

Vazirlik tizimidagi “shaharni tashkil etuvchi hamda strategik korxona” maqomiga ega bo'lgan – “Olmaliq KMK”, “Navoiy KMK”, “O'zmetkombinat”, “O'zbekko'mir” AJ va “Navoiyuran” DKda minglab yaqin qarindoshlar birgalikda faoliyat olib kelish holatini yangi qabul qilingan “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonun talablariga muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi VMQ-400-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrdagi 758-son qarorining 18-bandiga tegishli o'zgaritish kirtildi.

Natijada vazirlik tizimidagi ishlab chiqarish, konchilik va sanoat korxonalarida yaqin qarindoshlarning birga ishlashi istisno qilinuvchi “**Istisnolar ro'yxati**”ga kiritildi va mazkur tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikka muvofiq yagona amaliyot shakllantirildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tartib-taomillarini tadbiq etish hamda korrupsiogen omillarni tiyib turishga qaratilgan quyidagi **8 ta** ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi:

1. 2025-yil 3-yanvar kunidagi “Davlat xaridlariga oid hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” 1-son buyruq;

2. 2025-yil 7-mart kunidagi “Kon-geologiya vazirligida manfaatlar to'qnashuvi tartibga solish to'g'risida” 29-son buyruq;

3. 2025-yil 30-aprel kunidagi 57-son buyruq bilan tasdiqlangan “Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish qo'mitasi va uning nizomi”;

4. 2025-yil 1-may kunidagi “Sohada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari ishini yangicha tizim asosida tashkil etish to'g'risida” 59-son buyruq;

5. 2025-yil 30-iyul kunidagi “Kon-geologiya vazirligi markaziy apparati va tizimda kadrlar siyosatini amalga oshirish hamda bo'sh ish o'rinlariga xodimni tanlov asosida ishga qabul qilish to'g'risida” 94-son buyruq;

6. 2025-yil 29-avgust kunidagi “Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki audit o'tkazish to'g'risida” 106-son buyruq;

7. 2025-yil 3-oktyab kunidagi 126-son buyruq bilan yangilangan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom”;

8. 2025-yil 16-oktyabr kunidagi “Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'tkazilgan audit natijasida aniqlangan xavf-xatarlarni bartaraf etish to'g'risida” 134-son buyruq.

Shu bilan birga, Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni oldini olish va chek qo'yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida 2025-yilning 29-avgust kunidagi 106-son buyruq asosida vazirlik tarkibidagi **3 ta departament, 9 ta boshqarma va 34 ta bo'limlar** faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar, xususan ular tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar va vazifalar bajarilishida yuzaga keladigan korrupsiogen omillar hamda sohada qabul qilingan qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar to'g'risida xabardorlik bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi.

Bundan tashqari, vazirlikning “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi nizom”, “Sovg‘a berish va qabul qilish siyosati” talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida prezentatsiya materiallari hamda vazirlikda davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi va korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusidagi **5 ta** videorolik tayyorlandi (t.me/uzdavgeolcom/19763, t.me/uzdavgeolcom/21181, x.com/uzgeology/status/1998339369954947260?s=20, x.com/uzgeology/status/1998352163353797107?s=20, x.com/uzgeology/status/1998258164106768546?s=20).

2. Kon-geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash natijalari.

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik ijro apparatidagi barcha lavozimlar va funksiyalar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida Kon-geologiya vazirligida korrupsiogen xavf-xatarlar xaritasi tuzildi.

Unga ko‘ra, Kon-geologiya vazirligining 25 ta funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 2 tasida korrupsiya xavf-xatari “Yuqori” bo‘lgan lavozimlar, 16 tasida “O‘rta”, 7 tasida “Past” daraja qayd etilgan.

Bu yo‘nalishdagi ishlar alohida Ish reja asosida davom ettirilishi begilandi va vazirlikning korrupsiogen xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqildi va mas‘ul ijrochilar va tadbirlar muddatlari belgilandi. Mazkur jarayonlarni barchasi “E-anticor.uz” elektron platformasiga yuklangan.

Tizim korxonalarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash jarayoni amalga oshirilishi natijasida jami **2 446** ta funksiyalar baholanib, shundan **200** tasi “**yuqori**”, **411** tasi “**o‘rta**” va **1835** tasi “**past**” daraja qayd etilgan.

Yuqoridagi tizimosti korxonalari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

3. Tizimda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida vazirlikning barcha xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi ijro apparatining jami **109 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oshkor qilish shaklining (deklaratsiya) to‘ldiridilishi ta‘minlandi (*5 ta vakansiya mavjud, 1 ta xodim homiladorlik ta‘tilida*).

Odob-axloq komissiyasi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar ko‘rib chiqilganda, deklaratsiya to‘ldirgan 109 nafar xodimlardan 11 tasida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holat qayd etildi.

Vazirlikda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish hamda unga chek qo‘yish maqsadida Kon-geologiya vazirining 2025-yil 7-mart kunida 29-sonli buyrug‘i qabul qilindi va tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi. Mazkur yo‘nalishda ochiqlik va

shaffoflikni ta'minlash maqsadida vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali barcha ma'lumotlar yoritilgan (<https://gov.uz/oz/mingeo/news/view/40329> , <https://t.me/uzdavgeolcom/18881>).

Hisobot davrida vazirlik va tizim osti korxonalarining **34 825 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida deklaratsiyalar to'ldirilgan. Tahlil natijasiga ko'ra jami 81 nafar xodimlarda haqiqiy va 2 815 nafar xodimlarda esa ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati qayd etildi va mazkur holatlarni oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi (*boshqa lavozimga o'tkazish, bevosita bo'ysinuvni o'zgartirish, tadbirkorlik subyektlarida rahbar lavozimlardan yoki o'z ulushidan voz kechish va h.k.*). Natijada 2025-yilning 31-dekabr holatiga jami 2 797 ta holat (77 ta haqiqiy va 2 720 ta ehtimoliy) bartaraf etilishi ta'minlandi. Mazkur yo'nalishda tegishli chora-tadbirlar davom ettirilmoqda.

4. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida xaridlarni tashkil etish sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2025-yilning 31-dekabr holatiga jami 10,7 mlrd. so'mlik jami 469 ta shartnomalar rasmiylashtirilgan (2024-yilning shu davrida 8,3 mlrd. so'mlik jami 392 ta shartnomalar rasmiylashtirilgan). Shundan 309 ta xarid (3,9 mlrd. so'm) elektron do'kondan, 1 ta (4,6 mln. so'm) elektron auksiondan, 88 ta (1,8 mlrd. so'm) kooperatsiya portali orqali, 18 ta (2,2 mlrd. so'm) yagona yetkazib beruvchilar bilan, 53 ta (2,7 mlrd. so'm) shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida shartnoma imzolangan.

Tizimda 2025-yilning 31-dekabr holatiga jami **90 365 ta** shartnomalar O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida tuzilgan. Shundan, to'g'ridan-to'g'ri, yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar **2 643 tani** tashkil etadi va ularga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha ogohlantirish bandlari kiritilmoqda.

Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni tashabbuskor tomonidan kontragentlarni o'rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlar **2648 ta** shartnomalarda amalga oshirilgan va tegishli xulosalar taqdim etilgan.

Hisobot davrida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida "O'zbekgeofizika" AJ – 4,3 mlrd. so'm, "O'zmetkombinat" AJ – 3,8 mlrd. so'm, "Navoiyuran" DK – 1,5 mlrd. so'm, Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi – 522,0 mln. so'm, "Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM – 156,0 mln. so'm, jami tizimosti korxonalarida **10,5 mlrd.** so'm miqdoridagi pul mablag'lari iqtisod qilingan.

5. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim osti korxonalarida ishga qabul qilish jarayoni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi va mehnat munosabatlarida amaldagi qonunchilik buzilish holatlari bo'yicha o'tkazilgan xizmat surishtiruvlari to'g'risida.

Mazkur yo'nalishda korrupsiogen omillarni bartaraf etish maqsadida vazirlik bo'sh o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy ravishda rasmiy veb-saytga va Davlat

xizmatlarini rivojlantirish agentligining “vacancy.uz” saytida berib borilmoqda. Hicobot davrida 18 ta lavozimga fuqarolarni ishga olish ochiq tanlov va “Argos” tizimi orqali test sinovlari amalga oshirilgan hamda o‘tkazilgan sinov tadbirlarini Internet orqali real vaqt rejimida kuzatish ta’minlangan.

Shu bilan birga, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida **18 ta** nomzod o‘rganilgan va tegishli xulosalar berilgan.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi siyosati talablari asosida barcha xodimlarning mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ogohlantirish bandlari kiritilishi ta’minlandi.

Vazirlik va tizim korxonalarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, mehnat munosabatlarida qonun buzilish holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o‘rganish maqsadida hisobot davrida vazirlik tomonidan **4 ta xizmat surishtiruvi o‘tkazilgan**, natijalari bo‘yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora-tadbirlar ko‘rilgan.

Hisobot davrida tizim osti korxonalarini tomonidan jami **119 ta** xizmat surishtiruvlari o‘tkazilgan. Mazkur tadbir natijasida ichki me’yoriy hujjatlar talablarini buzgan tizim korxonalarining **192 nafar** xodimga intizomiy jazo qo‘llanilgan va **35 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilingan.

Xizmat tekshiruvlari natijasida aniqlangan kamchiliklarni keyingi davrlarda takrorlanishini oldini olish maqsadida har bir tizim tashkiloti tomonidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va profilaktik tadbirlar o‘tkazilgan.

6. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar to‘g‘risida.

“Kon-geologiya vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” talablari asosida joriy yilda aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid 1 ta murojaat kelib tushgan. Mazkur murojlat bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan va kelgusi davrda aniqlangan kamchiliklarni oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

2025-yil davomida vazirlik tizim korxonalarining aloqa kanallari orqali jami **2530 ta** murojaatlar kelib tushgan, shundan 2486 tasi o‘z vatqida ko‘rib chiqilishi ta’minlangan, 44 ta murojaatlar qo‘rib chiqilmoqda.

7. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish rejalashtirilgan.

Mazkur rejaga muvofiq 2025-yilning 10-21-fevral kunlari **Vazirlik markaziy aparati** xodimlariga 2024-yil iyul-dekabr oylarida berilgan to‘lovlar va

rag'batlantirishlarning tahlili monitoring qilindi. Natijada amaldagi tartib-taomillarga muvofiq amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.

Xususan, vazirlik tomonidan hiosbot davrida "Navoiyuran" DK, Geologiya fanlari universiteti, "Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti", "Meneral resurslar instituti", "Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti DMLari hamda "O'zbek geologiya qidiruv" va "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJlarida sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni tatbiq etish bo'yicha hamda tarmoq korxonalaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarida monitoring tadbirlari o'tkazildi. Natijasi bo'yicha mazkur tashkilotlarga tegishli takliflar va amaliy yordam ko'rsatildi.

8. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida o'tkazilgan profilaktik tadbirlar va mazkur sohada malaka oshirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq Vazirlikning "Korrupsiyaga qarshi siyosati", "Odob-axloq kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" talablari asosida tushuntirish-profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Vazirlik va tizimosti xodimlariga korrupsiya tushunchasi, mazkur sohadagi qonunchilik talablari, korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida hisobot davrida **19 ta** seminar va davra suhbatlari o'tkazildi.

Hisobot davrida Vazirlik va tizim korxonalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida huquq-tartibot organlari va ichki nazorat tuzilmalarining xodimlari tomonidan jami **494 ta tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.**

9. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi rasmiy saytida uchta (o'zbek, ingliz, rus) tillarida korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan va bu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda. Jumladan, hisobot davrida tizim korxonalari tomonidan ommaviy axborot vositalari, veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali jami **747 ta** sohaga oid materiallar joylashtirilgan.

Xususan, Kon-geologiya vazirligi 28 ta, "Olmaliq KMK" – 82 ta, "Navoiyuran" DK – 75 ta, "Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti – 74 ta, Geologiya fanlar universiteti – 61 ta, "O'zbek geologiya qidiruv" AJ – 57 ta, "O'zbekko'mir" – 51 ta, "Navoiy KMK" – 39 ta, "Sharg'unko'mir" AJ – 44 ta, "Mineral resurslar instituti" DM 42 ta, "Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti" DM – 26 ta, "Yer qa'ridan foydalanish markazi" – 23 ta, "O'zmetkombinat" AJ va "Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti" DM har biri 21 tadan,

“Geologiya va fizika instituti” DM – 18 ta, “O‘zbekgeofizika” AJ – 17 ta, Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi va “O‘zbekgidrogeologiya” DM – har biri 16 tadan, “Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi instituti” DM – 13 ta materiallarni joylashtirgan.

Bundan tashqari, “Iste’mol madaniyati” gazetasining 2025-yil 27-noyabr kunidagi **“Vazirlik faoliyatining ochiqligi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”**gi mavzusidagi maqolasida sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma’lumotlari chop etilgan.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 10 dan ortiq bannerlar, ko‘rgazmali stendlar va 5 ta videorolik tayyorlandi. Ularni ommalashtirish maqsadida vazirlik va tizim korxonalarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritilgan va unda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida axborot materiallari va ishonch telefoni va elektron pochta to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirilgan.

Bundan tashqari, “Kon-geologiya vazirligi tizimida davlat xaridlari shaffof, ochiq va adolatli jarayon” nomli videorolik tayyorlandi va vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida yoritildi (<https://t.me/uzdavgeolcom/19763>).

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda hisobot tayyorlanib, “E-anticor.uz” platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda yozma ravishda Hisob Palatasiga yuborilmoqda.

9.1. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma to‘g‘risida.

2025-yilning sentyabr oyida Kon-geologiya vazirligi va uning tizim korxonalarida korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha anonim so‘rov o‘tkazildi.

Shu maqsadda 12 banddan iborat savollar tuzilib, jamoatchilikning Tog‘-kon sanoati va geologiya korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan savollardan iborat “Jamoatchilikning konchilik va geologiya korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan so‘rovnoma” vazirlikning telegram kanaliga (<https://t.me/uzdavgeolcom/20375>) joylashtirildi.

O‘tkazilgan anonim so‘rovnomada 155 nafar obunachilar qatnashdi. Natijalarga ko‘ra, so‘rovnoma ishtirokchilarining 69,0% konchilik va geologiya sohasi xodimlari, 16,8% boshqa davlat tashkiloti xodimlari, 14,2% esa turli soha vakillari to‘g‘ri keladi. So‘rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning 52,3 foizi 36-60 yoshgacha, 45,8% esa 18-35 yoshni tashkil etgan.

Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 54,2% korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holatini ijobiy baholagan va 41,9% amalga oshirilayotgan ishlar natija berayotganligini qayd etgan.

Shu bilan birga, konchilik va geologiya sohasi korxonalari tomonidan davlat xizmatlarini ko‘rsatish hamda jismoniy va yuridik shaxslar bilan hamkorlik bo‘yicha

63,2% ishtirokchilar yaxshi baho berib, 43,3% respondentlar yer qa'ridan foydalanish sohasida davlat nazorati yetarli darajada emasligini belgilashgan.

Bundan tashqari, 32% ishtirokchilar xodimlar bilan ishlash bo'limlarida, 31% xaridlar bo'limida, 15% yer qa'ridan foydalanuvchilarni nazorat qilish tuzilmalarida, 22% boshqa tuzilmalarda korrupsiogen omillar borligi va mazkur sohalarda islohotlar olib borish lozimligini qayd etishgan.

“Sizningcha, qanday chora-tadbirlar konchilik va geologiya sohasi korxonalarida korrupsion holatlar kamayishiga olib keladi?” degan savolga ishtirokchilar tomonidan *“Sohani raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish, xodimlar maoshini oshirish, ta'minotni yaxshilash, moliya va buxgalteriya sohasida ishlagan xodimlarni rotatsiya qilish, OAVda ochiq hisobot berib borish, shaffoflikni ta'minlash”* kabi takliflar tushgan.

Anonim so'rovnoma natijasi bo'yicha 2026-yil davomida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

10. Tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

Vazirlik va tizimdagi korxonalarda aniqlangan korrupsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularni barvaqt aniqlash, oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar tayyorlash;

xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida doimiy ravishda tushuntirish ishlarini va mazkur sohada o'qitishni tashkil etish;

korrupsiya holatlarini oldini olishda ochiqlik tamoyillariga amal qilish, mazkur sohada jamoatchilik bilan nazoartini ta'minlash maqsadida korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish mo'ljallangan aloqa kanallarini ommalashtirish, shuningdek javobgarlikning muqarrarliligi tamoyilini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining yagona axborot tizimlari foydalangan holda davlat xaridlari bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilib borish, korrupsiogen xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish;

vazirlik xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan, “Odob-axloq kodeksi” talablariga rioya etilishini o'rganish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tizimli tahlil o'tkazish;

sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni tatbiq etish hamda tarmoq korxonalardagi komplayens xizmati xodimlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

murojaatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar samaradorligini har chorakda baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.